

TA'LIMDA TENG IMKONIYATLAR: ALOHIDA EHTIYOJLI O'QUVCHILARNI JAMIYATGA INTEGRATSIYALASH.

Yo'ldosheva Dilfuzaxon Alisher qizi

Farg'ona davlat universiteti Pedagogika kafedrasi katta o'qituvchisi,

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD

Turdaliyev Xusonjon Murotali o'g'li

Farg'ona davlat universiteti, Pedagogika va psixologiya fakulteti

E-mail: gerroyg7@gmail.com

ANOTATSIYA

Mazkur tezisda inklyuziv ta'limning O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimidagi o'rni va ahamiyati, uning pedagogik-psixologik xususiyatlari, xalqaro va milliy tajriba asosida joriy qilinishi, imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirishdagi roli tahlil qilinadi. Shuningdek, inklyuziv ta'limning afzalliklari va amaliyotdagi muammolari yoritiladi. Tadqiqot natijalari asosida umumta'lim maktablarida inklyuziv yondashuvni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, imkoniyati cheklangan bola, ta'lim huquqi, ijtimoiy integratsiya, pedagogik texnologiya, qo'shma ta'lim, O'zbekiston tajribasi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida inson qadri, ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillariga asoslangan holda ta'lim tizimida keng ko'lamli islohotlar amalgalashirilmoqda. Bu islohotlar jarayonida inklyuziv ta'limni rivojlantirish masalasi ham dolzarb mavzulardan biri sifatida alohida e'tibor qaratilmoqda. Inklyuziv ta'lim tizimi — bu barcha bolalar, jumladan imkoniyati cheklanganlar uchun ham ta'lim olishda teng huquq va sharoitlar yaratishga qaratilgan pedagogik va ijtimoiy yondashuvdir.

Inklyuziv ta'lim — bu nogironligi bo'lgan bolalarni jamiyatdan ajratmasdan, sog'gom bolalar bilan birga ta'lim-tarbiyaga jalb qilish tizimidir. Bu jarayon orqali nafaqat imkoniyati cheklangan bolalar ta'limga jalb qilinadi, balki jamiyatdagi boshqa

bolalarda ham bag'rikenglik, mehr-shafqat, hamdardlik kabi ijtimoiy qadriyatlar shakllanadi.

Bugungi kunda inklyuziv ta'lim tizimi Toshkent, Qarshi, Samarqand, Termiz, Andijon, Qo'qon, Nukus, Buxoro, Urganch va boshqa shaharlar maktablari, litseylarida sinov tariqasida yo'lga qo'yilgan. Bu maktablarda imkoniyati cheklangan bolalar sog'lom tengdoshlari bilan aralash sinflarda tahsil olishmoqda. Ushbu tajriba inklyuziv ta'limning samarali yo'lga qo'yilishi ta'lim tizimida sifatli o'zgarishlar berishini ko'rsatmoqda.

Inklyuziv ta'limning eng muhim afzalligi shundaki, bu yondashuv bolaning salomatligi, imkoniyati va ehtiyojidan qat'i nazar, uni jamiyat hayotiga faol jalg etish imkonini beradi. Bu orqali bola o'z tengdoshlari bilan birga darslarda qatnashadi, bilim oladi, ijtimoiylashadi va psixologik jihatdan o'zini jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida his etadi. Shuningdek, bu tizim orqali sog'lom bolalar ham insoniylik, bag'rikenglik va mas'uliyatni erta yoshdan o'rganadilar. Shu bilan birga, inklyuziv ta'lim tizimida muayyan muammolar ham mavjud. Jumladan, qishloq joylarda maxsus ehtiyojli bolalar uchun ta'lim muassasalari yetarli emas, o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi va metodik bilimlari past darajada, maxsus jihozlar va o'quv dasturlari yetishmaydi. Ayni paytda psixolog, defektolog, logoped kabi muhim mutaxassislar ham yetarli emas. Bu esa inklyuziv ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun inklyuziv ta'limni joriy etish bilan birga, uni metodik, kadrlar va moddiy-texnik jihatdan qo'llab-quvvatlash zarur. Jumladan, inklyuziv sinflarda ishlaydigan pedagoglar uchun alohida kurslar, malaka oshirish dasturlari joriy qilinishi, maktablar maxsus jihozlar bilan ta'minlanishi lozim. Shuningdek, ta'lim muassasalari va mahalla, ota-onalar o'rtasida uzviy hamkorlik yo'lga qo'yilishi, ijtimoiy stereotiplar bartaraf etilishi lozim.

Xalqaro tajriba ham shuni ko'rsatmoqdaki, inklyuziv ta'lim — bu nafaqat nogiron bolalarning o'qish huquqini ta'minlash, balki butun jamiyatni insonparvarlikka, ijtimoiy adolatga olib boruvchi yo'ldir. Masalan, AQShda 1975-yilda qabul qilingan "Barcha nogiron bolalar uchun ta'lim" qonuni asosida barcha bolalar ta'lim olishga

teng huquqqa ega bo‘ldi. Germaniya, Norvegiya, Italiya, Daniya kabi mamlakatlarda ham bu tizim ancha ilg‘or bosqichga chiqqan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirish, uni har bir maktab, har bir o‘qituvchi faoliyatiga singdirish, pedagoglarning malakasini oshirish, ota-onalar va mahallalar bilan hamkorlik qilish, mavjud muammolarni bartaraf etish orqali O‘zbekistonda insonparvar jamiyatni qurish yo‘lida muhim qadamlar qo‘yiladi.

Inklyuziv ta’lim nafaqat pedagogik yondashuv, balki bu ijtimoiy, ma’naviy va madaniy muhitni yaxshilash vositasidir. Zero, har bir bola jamiyatning to‘laqonli a’zosi bo‘lish huquqiga ega. Ularning ta’lim olishga bo‘lgan ehtiyoji va huquqi ta’mirlansa, bu jamiyatning o‘zi uchun foydalidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – T.: Adolat, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4860-sonli qarori, 13.10.2020 y.
3. “2020–2025 yillarda Xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiysi”. – T.: 2020.
4. Borisova N.V., Prushinskiy S.A. “Sotsialnaya inklyuziya v obrazovaniii.” Moskva: Pedagogika, 2018.
5. Brim O. “Tarbiyaviy tizimlarda shaxs rivoji nazariyasi.” – Nyu-York, 1975.
6. Bronfenbrenner U. “Ekologik rivojlanish modeli.” – AQSh, 1979.
7. Salamanka deklaratsiyasi. UNESCO, 1994.
8. YUNESKO. Inclusive Education: Global Monitoring Report. – Parij, 2020.